



SOHIBQIRON O'GITLARINING YOSHLAR TARBIYASIDA DOLZARBLIGI

Haqliev V.B

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son Toshkent Akademik litsey katta o'qituvchisi, tarix fanlari
nomzodi, dotsent*

Xurramova G.I

O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son Toshkent Akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalqining mard va jasur o'g'loni Amir Temurning mustaqil, ozod yashashni ta'minlashga qo'shgan hissasi va uning bosqinchilarga qarshi mardonovar kurashi haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, davlat arbobi, markazlashgan davlat, siyosiy, harbiy va huquqiy jihat, Movarounnahr, mo'g'ullar istilosi, adolat, Sohibqiron "Temur tuzuklari", rahm-shafqat, siyosat, insof, raiyat, in'om, qonun ustuvorligi.*

Amir Temur davlat arbobi sifatida markazlashgan davlatga asos soldi, mamlakatni siyosiy, harbiy va huquqiy jihatdan mustahkamladi va rivojlantirdi. Uning eng katta xizmati Movarounnahrni mo'g'ullar istilosidan ozod qildi. Amir Temur mamlakatda adolat qaror topishiga harakat qilgan. Shu bois Sohibqiron "Temur tuzuklari" asarida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Oltinchi (tuzukim) – adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdand rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim.

Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim.

Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim."¹ Yosh avlod ushbu jumalarni mehr bilan o'qib, mazmunini qalbiga jo qilsa adolat uchun kurashuvchi, unga rioya qiluvchiga aylanishi shubhasizdir.

Har qanday masala adolat va insof bilan hal etilsa xalq albatta rozi bo'ladi. Shuning uchun Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganidek, "Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish."²

Amir Temurning arboblik mahorati o'zi asos solgan davlatda intizom bilan ajralib turgan: "Dono vazir shuldirki, o'z o'rniga qarab, goh qattiqqo'llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi.

Bunday vazir ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, ko'p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi.

¹ Temur tuzuklari –T.2016. -31 b.

² <https://president.uz/>



Agar ko'p muloyimlik qilsa, dunyotalab, tamagir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo'llik ishlatsa, undan qochadilar va unga boshqa murojaat qilmaydilar.”³ Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlar fuqarolar bilan bo'lgan munosabatda faqat qonun doirasida munosabatda bo'lishlari kerak.

Amir Temurning yana bir fazilati yoshlar uchun ham ibratdir. Bu haqda “Temur tuzuklari”da shunday deyilgan: “Sakkizinchi (tuzukim) – azmu jazm bilan ish tutdim. Biror ishni bajarishni o'ylasam, butun zehnim, vujudim bilan berildim, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim.

Har neki desam, unga o'zim amal qildim.”⁴ Uning tirishqoqligi va harakatchanligiga quyidagi voqea sabab bo'lgan ekan: “Amir Temur yigirma uch yoshlarida qamoqqa tushib qolgani-da, qutulib ketishdan umidini uzib, dunyodan ko'ngli sovidi. Ittifoqo, shu palla darchadan tashqariga chiqmoqchi bo'lib devorda o'rmalab ketayotgan chumoliga ko'zi tushdi va kuzata boshladi.

Chumoli darchaga yetay deganda pastga yumalab tushib ketdi. U hech narsa bo'lmaganday yana yuqoriga intildi. Yana qulab tushdi... Bu hol ko'p takrorlandi, ammo chumoli o'rmalayverdi, o'rmalayverdi, tinmadi, oxiri darchadan tashqariga chiqib ketishga erishdi!”⁵ Demak yoshlarimiz qanday qiyinchilik va sinovlardan qo'rqmay irodali, tirishqoq bo'lishlari kerak.

Amir Temur mashhur strateg sifatida ham tanilgan. Amir Temurning harbiy iste'dodi, sarkardalik mahorati shiddatli muhoraba⁶larda qo'llangan “savquljaysh” (strategiya) va “ta'biyatuljaysh” (taktikalari)da namoyon bo'lgan.⁷ Shu yo'llar bilan qo'shinning jangovar ruhini oshirish va saqlashga harakat qilgan.

«Temur tuzuklari»da ta'kidlanishicha, “Lashkarimni atrofimga birlashtirmoq uchun ba'zilariga muruvvat, mehribonlik qildim; boshqalari bilan kelishishga intildim, yana bir guruhini esa molu dunyo bilan o'zimga qaratib olmoqchi bo'ldim. Yaxshi so'z, ahdu paymon va va'dalar bilan qolganlarining ko'ngliga tasalli berdim.”⁸ - degan fikrlar mavjud. Agar yoshlar faoliyatiga bog'laydigan bo'lsak, jamoani birligini saqlash uchun yoshlarga qonun doirasida muruvvat zarurligini unutmashlik, ayniqsa, fuqarolar bilan muloqotda shirinso'z, kamtar bo'lish kerak.

Tarixiy manbalarda Amir Temur yoshligidan aqlli, ochiq ko'ngil, jur'atli, qat'iy kuchli va qobiliyatli ekanligi qayd etilgan.⁹ Bu fazilatlar aynan yoshlarga ham tegishligi ekanligini unutmashligimiz kerak, bu sohada ham ilmi, qalbi toza, irodasi kuchli, sabrli yoshlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Angliyalik olim Hilda Hukhemning “Yetti iqlim sultoni: Hujjatli-tarixiy qissa”¹⁰ asarida “Temur o'zining favqulodda nodir salohiyati, faolligi va izzat-nafsi tufayli o'ta tolei kulgan shaxs edi” degan ta'rif bejizga berilmagan.

³ Temur tuzuklari –T.2016. -44 b.

⁴ Temur tuzuklari –T.2016. -31 b.

⁵ Muhammad Ali Amir Temur solnomasi. -T.2008. - 20 b.

⁶ Muhoraba so'zi ayrim manbalarda mahoraba shaklida ham yozilgan. Jang, urush ma'nolarini anglatadi.

⁷ Muhamadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. -T., 1994, 37-b.

⁸ Temur tuzuklari –T.2016. -14 b.

⁹ Ibn Arabshoh Ajoib al-makdur fi tarixi Taymur (Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) 1 kitob. –T., 1992. -72 b.

¹⁰ Hukhem H. Yetti iqlim sultoni: Hujjatli-tarixiy qissa. -T: “Adolat”, 1999. -320 b.



Temurning jangchilari “issiqqa ham, sovuqqa ham, tashnalikka ham bardosh bera olishar va bu borada biron-bir o‘zga millat ularga teng kela olmas edi.” Shuning ular borlikka va yo‘qlikka ham sabr qilishgan. Yoki biror narsadan tanqislik bo‘lsa, bu masalani ustamonlik bilan hal etishgan. Masalan, 1391 yili To‘xtamishga qarshi yurishda ikki yuz ming kishilik lashkar ozuqa tanqisligiga uchraydi.

Bunday og‘ir ahvol yana necha kun davom etishi ham noma‘lum edi. Shunda Amir Temur oqilona yo‘l bilan ovqat tanqisligi muammosini yechadi. U butun askarlari bilan cho‘lni halqa qilib o‘rashni buyuradi. Avvaliga diametri bir necha o‘nlab kilometrga yetadigan ulkan halqa hosil bo‘ladi.

So‘ngra halqa torayib, kichrayishi natijasida askarlar ikkinchi halqa hosil qiladi. Halqa ichida qolgan tirik jonivorlarning soni shu qadar ko‘p ediki, muallifning aytishicha, askarlar uni saralab, faqat semizlarini qoldirib, ozg‘inlarini qo‘yib yuboradi. Ov natijasida bir necha oylik ovqat jamg‘ariladi. 9 oy davom etgan bu yurishda lashkar o‘zini-o‘zi ovqat bilan ta‘minlaydi.¹¹ Yoshlar Temur bobomiz jangchilaridek, yozning jazirasidagi suvga tashnalikka, qishning ayoziga sabr-qanoat qilish, oldida turgan har qanday masalani ustamonlik bilan hal etish talab etiladi.

Amir Temurning mahoraba san‘atida kamtarlik, o‘z kuchini ko‘z-ko‘z qilmaslik ustuvor bo‘lgan. Uning bu harakati g‘animda beparvolik holati keltirib chiqargan. Bundan Sohibqiron ustamonlik bilan foydalana olgan.¹²

Arabshoh Temur saltanatidagi ayollar haqida shunday yozgan: “Temurning lashkaridagi ayollar ham erlaridan qolishmasdi. Ular jangu jadal avjiga chiqqan paytda maydonga tushishar, nayza, shamshir va kamonni mohirona ishga solib, dushmanning ne-ne zo‘r yigitlarni mag‘lub etishardi.”¹³ Ichki ishlar organlarida ham uncha muncha erkaklardan qolishmaydigan xotin-qizlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Amir Temur talon-tarojlik, qotillik, xotin-qizlarning nomusiga tegish, zo‘rlash kabi jinoyatlarni juda yomon ko‘rgan, shuning uchun uning oldida bular haqida gapirish mumkin bo‘lmagan.

O‘g‘rilar xususida buyurdimki, ular qaerda bo‘lmasin, tutib olinsa, yaso bo‘yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo‘rlilik bilan tortib olgan bo‘lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar.

Agar kimda-kim tish sindirsa, ko‘zni ko‘r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so‘ng mening arzimga yetkazsin.¹⁴

Temur o‘g‘rilarni moddiy jazolagan ya‘ni o‘g‘irlangan molni egasiga 9 hissa qilib qaytarsa jazolanmagan.¹⁵

Amir Temurdagi yana bir xislat hech qachon qiyin sharoitda o‘zini yo‘qotmagan va har qanday og‘ir vaziyatdan to‘g‘ri tadbir orqali chiqib keta olgan. Axir bejiz Temur

¹¹ Qarang: Ubaydullaev Shohruh Humoyun o‘g‘li Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida badiiy to‘qima va mumtoz tarixiy manbalar munosabati (I, II kitoblar asosida) 5A220101 – Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T., 2014. 24 b.

¹² Qarang: Hukhem H. Yetti iqlim sultoni: Hujjatli-tarixiy qissa. -T: “Adolat”, 1999. -66 b.

¹³ Hukhem H. Yetti iqlim sultoni: Hujjatli-tarixiy qissa. -T: “Adolat”, 1999. -58 b.

¹⁴ Temur tuzuklari –T.2016. -106 b.

¹⁵ Hukhem H. Yetti iqlim sultoni: Hujjatli-tarixiy qissa. -T: “Adolat”, 1999. -63 b.



tuzuklarida: “Men yana tajribamda ko‘rdimki, g‘anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g‘olib bo‘lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir.”¹⁶ Haqiqan Amir Temur tadbirdan ko‘p marta foydalangan. Dushman bilan bo‘lgan janglarning birida raqib orqa tomoniga o‘tib zarba berish kutiladi. Biroq Amir Temur kam sonli askari bilan dushmanga juda yaqin borib qolganini angelaydi va askarlariga otdan tushib dam olishni buyuradi. Bunday holatni ko‘rgan g‘anim ularni o‘zimizdan deb o‘ylaydi. Dushman harakatga kelganda orqasidan borib taslim etadi.

Amir Temirning yana bir fazilati ustozlarni hurmat qilishi va ulardan maslahat olishidir. Chunki ustozlarni hurmat qilish azal-azaldan bizlarga meros bo‘lib kelgan tushunchadir. Sohibqiron ustoz hurmati, ustoz xizmatiga katta e‘tibor bergan. O‘z navbatida ustozlardan foydali maslahatlar olgan. Mir Sayyid Baraka Amir Temurning pirlari ichida eng mashhuri.

U har doim: janglarda ham, mashvaratlarda ham, bazmu bayramlarda ham Amir Temurning yonida bo‘lgan. Unga har bir ishning shariyatga muvofiq yoki nomuvofiqligi haqida aytib turgan. Amir Temurning har bir ishida duolar qilib, unga zafar tilagan.

Amir Temurning qo‘shinlari To‘xtamishxon bilan Turkiston atrofida bo‘lgan jangda yengila boshlagan paytda ustoz Sayid Baraka ma‘naviy, ruhiy yordamga keldi. Sayid Baraka otdan tushib, bir siqim tuproqni yerdan olib dushman tomonga sepib, “yog‘i qochdi” (yog‘iy -. dushman, yov, g‘anim V.X.) deb baqira boshladi.

Unga Amir Temurning barcha askarlari qo‘shilib baland ovoz baqirishib, dushmanga hujumga o‘tishdi va ularni shu tariqa yengishdi.¹⁷

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan Sohibqironning maqom-darajasi naqadar yuksakligini bildik. Uni hurmat qilish uchun quyidagilarga rioya qilish maqsadga muvofiq: g‘iybat qilmaslik, bayramlarda ularni eslash, ko‘ngilni ranjitadigan ishlardan uzoq bo‘lish muhimdir. Shundagina Yangi O‘zbekiston poydevorini qurishga katta hissa qo‘shamiz.

¹⁶ Temur tuzuklari –T.2016. -14 b.

¹⁷ Ibn Arabshoh Ajoib al-makdur fi tarixi Taymur (Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) 1 kitob. –T., 1992. -83 b.